

**“O‘zmetkombinat” AJ Kuzatuv kengashi huzuridagi Komplayens – xizmati
tomonidan amalga oshirilgan ishlar
HISOBOTI
(2024 – yil I yarim yillik yakuni bo‘yicha)**

Kuzatuv kengashi huzuridagi Komplayens - xizmati faoliyati “O‘zbekiston Metallurgiya Kombinati” AJ (*keyingi o‘rinlarda Komplayens - xizmati*) 2024 – yilning I yarim yilligida (*keyingi o‘rinlarda hisobot davri*) o‘zining funksional faoliyat yo‘nalishlari doirasida tadbirlarni amalga oshirishga, shuningdek, Komplayens - xizmatining 2024 - yil 19 – yanvarda tegishli qaror bayonnomasi bilan tasdiqlangan ish rejasini bajarishga qaratildi.

I) Tartibga soluvchi hujjatlarni (siyosatlar, reglamentlar, uslubiyot va boshqalar) ishlab chiqish – hisobot davrida Komplayens – xizmati tomonidan “*Axloq Kodeksi*” (*yangi tahrirda*), “*Qoidabuzarliklar haqida xabar berish Siyosati*”, “*Sovg‘alar berish va qabul qilish va biznes mehmondo‘stlik Siyosati*” va “*O‘zmetkombinat” AJ, uning hududiy va tarkibiy bo‘linmalarida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar bergan xodimlarni rag‘batlantirish Tartibi*” kabi hujjatlar ishlab chiqildi va Kuzatuv kengashi yig‘ilishlarida tasdiqlandi. 2024-yil uchun Komplayens - xizmatining rejalashtirilgan yo‘nalishlari doirasida “*O‘zmetkombinat” AJ ning jinoyatdan olingan daromadlarini legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish Siyosati*”, “*Xaridlarni amalga oshirishda narxlarning obyektivligini tekshirish Reglamenti*” va “*O‘zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyatida, uning hududiy va tarkibiy bo‘linmalarida kontragentlarni tekshirishga oid Yo‘riqnoma*” ishlab chiqilgan bo‘lib, odob axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasiga ko‘rib chiqishi uchun kiritildi va Kuzatuv kengashining navbatdagi yig‘ilishida tasdiqlanishi rejalashtirilgan.

II) Xavflarni boshqarish sohasida (risk management) – Adliya vazirligi tomonidan 2022-yil 31-avgustda 3383-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan (*korrupsiyaviy xavf – xatarlarni aniqlash va baholash*) Uslubiyot hamda Jamiyatning tegishli ichki idoraviy hujjatlariga asosan hamda Korrupsiyaga Qarshi Kurashish Agentligining 04-07/1139-sonli xizmat xati, shuningdek, ***Kombinatning Davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligi reytingidagi egallagan*** o‘rnini yanada yaxshilash maqsadida Komplayens – xizmati tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasi doirasida Jamiyatning **9 tarkibiy – tashkiliy bo‘linmasining 56 funksiyasi** baholandi.

Hisobot davrida O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga Qarshi Kurashish Agentligi tomonidan “O‘zmetkombinat” AJ tomonidan ishlab chiqilgan korrupsiyaga qarshi kurashish xavfi xaritasi qabul qilindi. Tasdiqlangan korrupsiyaga qarshi kurashish xavf xatarlar xaritasi asosida Korrupsiya xavfining oldini olish dasturi va korrupsiya xavfiga moyilligi yuqori bo‘lgan lavozimlar ro‘yxati ishlab chiqildi.

“O‘zmetkombinat” AJ ning xavflar reyestri 2024-yil uchun yangilandi. Xatarlarni tasniflash reestriga **20 ta** strategik, **68 ta** operatsion, **17 ta** moliyaviy tavakkalchilik, **127 ta** huquqiy xavflar (komplayens xavflar) sohasidagi xavflar kiradi.

III) Xaridlar jarayoni bo'yicha komplayens sohasida – hisobot davrida Komplayens – xizmati faoliyatining funksional yo'nalishlari doirasida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

1) “O'zmetkombinat” AJning 1241 ta amaldagi va potensial kontragentlarining ishonchliligi va xalqaro, G'arbiy va Yevropa Ittifoqi davlatlari sanksiyalariga muvofiqligi tekshirildi va ushbu tekshiruvlar yuzasidan **79 ta** holat aniqlandi. Kontragentlarni lozim darajada tekshirish doirasida, belgilangan talablarga muvofiq kontragentlarning davlat byudjeti oldidagi qarzlari (*solliqlar, MIB oldidagi qarzlar*) mavjudligi, uning faoliyati (*ishlayotgan korxonaga yoki faoliyati to'xtatilganligi*), manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi, uning ofshor zonalarida ishlashi, bankrotlik xavflari va boshqa xavflarga nisbatan tekshirildi.

2) 2024 yil 1 – yanvardan 30 – iyungacha bo'lgan hisobot davrida Komplayens - xizmati tomonidan tovarlar (ishlar va xizmatlar) xarid qilish narxlarini ekspertizadan o'tkazish doirasida **260 talabnoma** ko'rib chiqilishi natijasida narxlarning **13 478 254 716 so'mga** oshganligi aniqlanib, ushbu holatlar yuzasidan Ishlab chiqarishni ta'minlash departamenti tomonidan qabul qilingan va tasdiqlangan xarid qilish tartib - taomillarining narx parametrlarini optimallashtirish bo'yicha tegishli tavsiyalar berildi.

IV) Xodimlarni boshqarish jarayonlarining komplayens sohasida - hisobot davri davomida Komplayens - xizmati Xodimlarni boshqarish departamenti bilan hamkorlikda Korrupsiyaga Qarshi Kurashish Agentligi talablari asosida yangi ishga qabul qilingan va boshqa lavozimga o'tkazilgan xodimlarning manfaatlar to'qnashuvi hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki normativ hujjatlar bilan tanishganliklari haqida ma'lumotlar, Kombinat ichki tartib qoidalarini va korrupsiyaga qarshi kurashish qonun hujjatlari talablarini buzgan xodimlar uchun ko'rilgan intizomiy jazo choralar soni, manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi tegishli yillik deklaratsiyalar to'ldirish bo'yicha hisobotlar tayyorlash ishlari tashkillashtirdi.

Hisobot davrida Komplayens - xizmati Xodimlar va tashkiliy rivojlanish direksiyasi tomonidan “O'zmetkombinat” AJning hududiy va tarkibiy bo'linmalarida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi Nizomga muvofiq manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi / yo'qligi to'g'risidagi deklaratsiyalarni to'ldirish bo'yicha faoliyati monitoringi davom ettirildi.

V) Monopoliyaga qarshi komplayens sohasida - hisobot davrida O'zbekiston Respublikasi Raqobatni Rivojlantirish va Iste'molchilar Huquqlarini Himoya Qilish Qo'mitasining tavsiyasiga ko'ra, 2024 - yil 16 - yanvarda taqsdirlangan Jamiyatda monopoliyaga qarshi qonun hujjatlari talablarini buzilish xavflarini kamaytirish chora-tadbirlari dasturi asosan Komplayens – xizmati tomonidan “Monopoliyaga qarshi qonunchilik sohasidagi huquqbuzarliklarga qarshi kurash bo'yicha qo'llanma” ishlab chiqildi.

VI) Komplayens tekshiruvlar – hisobot davrida Komplayens – xizmati tomonidan to'rt marotaba keng qamrovli majmuiy komplayens - tekshiruvlari o'tkazildi:

- sifatsiz mexanik uplotnitel' vallarini sotib olish faktiga nisbatan komplayens tekshiruv o'tkazilib, komplayens tekshiruv natijalariga ko'ra, kombinatning NPS bo'linmasi tomonidan 10 (o'n) birlik miqdorida Wilo EMU FA rusumidagi oqova suvlarini tortish uchun mo'ljallangan nasoslari uchun texnik parametrlari va sifati mos kelmaydigan MFT 85/95-G6Q 12QIV mexanik uplotnitel' vallari sotib olinganligi va qabul qilinganligi tasdiqlangan. Tekshiruv davomida **korrupsion omillar** aniqlandi, ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar berildi;

- fil'tr matosini sotib olish to'g'risidagi shartnomaga nisbatan komplayens tekshiruv o'tkazilib, komplayens tekshiruv natijalariga ko'ra, kombinat tomonidan tovarlarni (filtrlangan matoni) haddan tashqari yuqori narxlarda sotib olish to'g'risida shartnoma tuzilganligi aniqlandi. Shartnoma mahalliy mahsulot ishlab chiqaruvchi koorxonalarining takliflari joylashtirilgan elektron kooperatsiya portali orqali tuzilgan bo'lsa-da, Kombinatsida ushbu mahsulotni Xitoydan qayta sotib olib qayta sotuvchi fil'trlangan matoning mustaqil ishlab chiqaruvchisi bo'lmagan korxonalar bilan shartnoma tuzilganligi aniqlangan. Bu, o'z navbatida, muqarrar ravishda **EPEK** va **FICH** bo'linmasi ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun talab qilinadigan filtr yenglarining va tayyor mahsulot tannarxining oshishiga olib keladi. Tekshiruv natijalariga ko'ra, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar berildi;

- ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha xizmat ko'rsatish uchun shartnoma tuzishda manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi to'g'risidagi komplayens - tekshiruv, o'tkazilgan komplayens - tekshirish yakunlari bo'yicha ish beruvchining fuqarolik javobgarligini **majburiy sug'urtalash xizmat ko'rsatish shartnomasini tuzishda manfaatlar to'qnashuvi sodir** bo'lganligi, ya'ni savdo loti baholangan texnik xulosani tayyorlashda bevosita ishtirok etgan Sotib olishlar boshqarmasi Xizmatlarni sotib olish bo'limi boshlig'i **B. Niyozov** "**KAFIL-SUG'URTA**" AJ (lot yakunlari bo'yicha g'olib bo'lgan kompaniya) boshqaruvi raisi F. Artikov bilan **yaqin qarindoshlik aloqalariga ega ekanligi** aniqlandi. Tekshiruv davomida manfaatlar to'qnashuvi omillari aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar berildi;

- Xodimlar va tashkiliy rivojlanish direksiyasida majmuiy komplayens - tekshiruv o'tkazildi: Tekshiruv davomida yuqorida qayd etilgan bo'linma faoliyatida yo'l qo'yilgan kamchiliklar aniqlanib, xususan, manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyalar o'z vaqtida to'ldirilmagani va direksiya to'g'risidagi Nizom mavjud emasligi holatlari aniqlandi. Tekshiruv natijalariga ko'ra aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan tavsiyalar berildi.

VII) Kombinats xodimlari va fuqarolarning murojaatlari bilan ishlash, "ishonch aloqa kanallari" tashkil etilganligi – 2024 – yil hisobot davrida korrupsiya holatlari haqida xabar berishga mo'ljallangan aloqa kanallari orqali **13 ta murojaat** kelib tushgan bo'lib, barcha murojaatlar tegishli tarkibiy bo'linmalarni jalb qilgan holda ko'rib chiqilib, murojaat qilganlarga yozma va og'zaki ravishda javoblar berildi.

VIII) Kombinats xodimlari uchun o'quv seminarlari - Hisobot davrida tasdiqlangan ish rejasi asosida "O'zmetkombinat" AJ tarkibiy bo'linmalari yetakchi

mutaxassislarini jalb qilgan holda Komplayens - xizmati tomonidan **3 marotaba** xavflarni boshqarish, korrupsiya, monopoliyaga va boshqa xavflarga qarshi kurashish “Uch bosqichli himoya 3LoD” mavzularida maxsus o‘quv seminarlari tashkil etildi va o‘tkazildi.

Maxsus o‘quv seminarlarida asosiy e’tibor tarkibiy bo‘linmalardan tayinlangan xavf - koordinatorlarni ishlab chiqarish, moliyaviy, xo‘jalik va “O‘zmetkombinat” AJ faoliyatidagi barcha xavflarni aniqlash va ularni qisqartirish hamda bartaraf etish bo‘yicha tegishli mos tavsiyalar ishlab chiqish bo‘yicha malakalarini oshirishga qaratildi.

Shuningdek, Kombinat rahbarlari va mutaxassislari uchun MChJ “SMART MANAGMENT” o‘quv markazini jalb qilgan holda “ISO 37001:2016 bo‘yicha Korrupsiyaga qarshi kurash boshqaruv tizimining menejeri / ichki auditori” mavzusida malaka oshirish kurslari tashkil etildi. Ushbu kursni muvaffaqiyatli tamomlagan **55 nafar** xodimlar tegishli sertifikatlariga ega bo‘ldi.

IX) Komplayens - xizmati xodimlarini o‘qitish va malakasini oshirish – hisobot davrida Komplayens - xizmati xodimlari O‘zbekiston Respublikasi Raqobat va Iste’molchilar Huquqlarini Himoya Qilish Agentligi va Korrupsiyaga Qarshi Kurashish Agentligi, MChJ “Smart Management” o‘quv markazi tomonidan davlat xaridlari va savdo sohasidagi davlat organlari va tashkilotlari raqobatga qarshi xatti-harakatlarni oldini olish va komplayens – nazorat qilish tizimini samarali joriy etish, korrupsiya xavflarini aniqlash va baholash hamda ISO 37001:2016 korrupsiyaga qarshi menegment tizimi menejeri / ichki auditorlik sertifikatini olish bo‘yicha tashkil etilgan malaka oshirish kurslari va seminarlarida qatnashdilar.

X) 2024 - yilgi Komplayens - xizmati ish rejasida belgilangan vazifalarni bajarish bilan bir qatorda, hisobot davridagi xizmat faoliyatida Vazirlar Mahkamasi, Tog‘ – Kon Sanoati va Geologiya vazirligi, Korrupsiyaga Qarshi Kurashish Agentligi, Davlat Aktivlarini Boshqarish Agentligi va boshqa Qo‘mitalarning topshiriqlarini bajarishga ham qaratildi. 2024 – yil hisobot davrida Komplayens - xizmatiga **61 ta xizmat** xatlari kelib tushdi, ular bo‘yicha topshiriqlarning to‘liq bajarilishi ta’minlandi.

XI) Hisobot davrida Komplayens – xizmati Matbuot xizmati bilan hamkorlikda Kombinatni “Davlat idoralarining korrupsiyaga qarshi kurashishdagi faoliyati samaradorligi reytingi” va “Ochiqlik indeksi” o‘rnini yanada yaxshilash maqsadida bir qator ishlarni amalga oshirdi, xususan, korrupsiyaga qarshi kurashish va manfaatlar to‘qnashuvini hal etish borasidagi ishlar to‘g‘risida har chorakda doimiy yangilanib borilayotgan va qo‘shimcha hisobot shaklidagi ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga Qarshi Kurashish Agentligi tomonidan ishga tushirilgan yagona identifikatsiya tizimi (**OneID**) orqali “**E-anticor.uz**” elektron platformasiga kiritildi.

Xodimlar o‘rtasida **keng miqyosda targ‘ibot va tashviqot ishlarini olib borish** va ishchi – xodimlar huquqiy ongini oshirish maqsadida Kombinat “Korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosati” va “Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish Siyosat”lari asosida amalga oshirilayotgan chora - tadbirlar yo‘nalishida Komplayens – xizmati tomonidan tegishli

mavzularda **6 ta audiorolik va 1 ta videorolik**, shuningdek, **7 ta yozma** targ'ibot materiallari ishlab chiqilib, ular Kombinat rasmiy veb - sayti va ijtimoiy tarmoqdagi rasmiy sahifalarida xodimlar, hamkorlar, kontragentlar va barcha kuzatuvchilar e'tiboriga havola etilmoqda.

“Metallurg minbari” gazetasi oylik nashrlarida Korrupsiyaga qarshi kurashish va manfaatlar to'qnashuvini boshqarish mavzularida Kombinat rahbariyati va Boshqaruv raisi o'rinbosarlarining **5 ta** va Bekobod jinoyat ishlari bo'yicha sudi sudyalari va faol fuqarolarning **6 ta maqolasi** chop etildi.

“O'zmetkombinat” AJ
Kuzatuv kengashi huzuridagi
Komplayens - xizmati boshlig'i

Badalbayev A.A.